



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

REPITISION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

## SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_ F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

### ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: **33 (516972)**

### FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyoti*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1906901**

Toshkent – 2015



## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Shoir o'z faoliyati bilan XV asr o'zbek adabiyotini mislsiz taraqqiyot cho'qqilariga ko'tarib, uyg'onish davri sifatida atalayotgan bu davr madaniy va adabiy hayotini o'z ijodi bilan bezadi. Ushbu gapda ishtirok etgan fe'l nisbatlari haqidagi to'g'ri hukmni toping.
- A) 1 ta orttirma, 1 ta aniq, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok  
B) 3 ta aniq, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan  
C) 2 ta aniq, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan  
D) 2 ta aniq, 1 ta orttirma, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan
2. Qaysi javobda tafakkur fe'llari keltirilgan?
- A) kashf qildi, o'ylaydi B) ijod qilmoq, yugurmoq  
C) qaltiramoq, isitmalamoq  
D) iztirob chekmoq, his qilmoq
3. Zavqiyning "Hajvi ahli rasta" satirasi qofiyalanish tizimi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
- A) a-a-a-a-a , b-b-b-b-a, d-d-d-d-a B) b-a,d-a  
C) a-a, b-a, d-a D) a-a, b-b, c-c
4. Tarkibida ravish o'rnida kelgan sifat mavjud bo'lgan so'z birikmasini aniqlang.
- A) tiniq daryo B) tez kelmoq C) ko'p odam  
D) yaxshi kiyingan
5. Bosh gapi egasi noma'lum gap bo'lgan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.
- A) Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa, aybni o'zingizdan qidiring.  
B) Har kishi el uchun topsa agar ranj,  
Oqibat muyassar bo'lar unga ganj.  
C) Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik kerak, chunki ko'p o'tinni ozgina o't kuydiradi.  
D) Odamning shunday do'stlari bo'ladiki, ularning har biri bilan fe'lga qarab gaplashishga to'g'ri keladi.
6. Qaysi javobda keltirilgan gapda har xil so'z turkumlari bilan ifodalangan ravish holi uyushgan?
- A) Saida goh afsuslanib, goh kulib gapirardi.  
B) Tanlovga jamoatchi, o'ziga ishongan o'quvchilar tanlab olindi.  
C) Siz ertalab, tushlikdan so'ng bu dorini iste'mol qiling.  
D) U hayajon bilan, tez-tez, bo'g'ilib so'zlar edi.
7. Quyidagi qaysi so'zning paronimi ikki xil so'z turkumi doirasida omonim bo'la oladi?
- A) shox B) yod C) oz D) boq
8. Y. E. Bertels quyidagi fikrni X asrda qayerda yaratilgan adabiyot haqida yozgan?  
"Aslini aytganda, til nuqtayi nazaridan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo'lish - haqiqatan shartli narsadir"
- A) Toshkentda B) Samarqandda C) Buxoroda  
D) Qashqarda
9. Imloviy jihatdan xato yozilgan so'z(lar)ni toping.  
1) yaroqli; 2) yarog'li; 3) yasanmoq; 4) yaslanmoq; 5) yaxlid  
A) 1, 3, 5 B) 5 C) 2, 4, 5 D) 4, 5
10. "Toshkentnoma" she'rida Maqsud Shayxzoda qaysi ijodkorni "asl shoir edi" deb aytadi?
- A) Usmon Nosirni B) Oybekni C) Fitratni  
D) Hamid Olimjonni
11. 1) Yurak yig'lar, aytishga iymanamiz.  
2) Seni unsiz erkalaydi nigohim.  
3) Karnay yig'lar, surnay yig'lar, qiz yig'lar.  
4) Yoqub cholga "Zaporojes" berishmadi.  
5) Arizalar yozib bersa ko'rishmadi.  
Berilgan gaplarning nechtasida metonimiya usulida ma'no ko'chgan?
- A) barchasida metafora usulida ko'chgan B) 2 ta  
C) 1 ta D) 3 ta
12. 1) -larcha; 2) -don; 3) -shunos; 4) -ona; 5) ser-; 6) -kash; 7) -dor  
Berilgan qo'shimchalardan qaysilarida shakldoshlik so'z yasovchilar o'rtasida kuzatilmaydi?
- A) 2, 6, 7 B) 1, 3, 4, 7 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5
13. Qaysi qahramon bir yoshligidanoq o'z ismini burro aytib to'yga yig'ilganlarni hayratlantirgan?
- A) O'g'uzxon ("Shajarayi turk")  
B) Suhrob ("Shohnoma") C) Farhod ("Farhod va Shirin")  
D) Majnun ("Layli va Majnun")
14. "Muxbirimiz voqea ro'y bergan joydan xabar beradi", "voqeaga guvoh bo'lganlarning so'ziga ko'ra", "muxbirimiz xabar berishicha" kabi iboralar qaysi uslubda qo'llaniladi?
- A) rasmiy uslub B) ilmiy uslub C) publitsistik uslub  
D) badiiy uslub
15. Quyidagi qaysi ijodkor o'zini muhit girdobidagi bir somon parchasiga o'xshatgan?
- A) Fitrat B) Cho'lpon C) Avaz O'tar D) A.Avloniy
16. "Uch og'ayni botirlar" ertagida "Podshohlik – qonxo'rlik demak" degan fikrni kim aytgan?
- A) Vazir B) to'ng'ich botir C) podshoh D) kenja botir
17. Qaysi javobda keltirilgan asardagi shohning taxti "Bir taxt edi, undan past kelardi Moh" deya tasvirlanadi?
- A) "Saddi Iskandariy"da Iskandarning  
B) "Qutadg'u bilig"da Kuntug'dining  
C) "Mirzo Ulug'bek"da Amir Temurning  
D) "Shohnoma"da Kaykovusning
18. Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon, Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. Kim kuchuk bila xo'dukka necha qilsang tarbiyat, It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami. Alisher Navoiyning ushbu misralar bilan yakunlanuvchi she'ri qaysi janrda yozilgan?
- A) qit'a B) g'azal C) ruboiy D) musaddas
19. Quyida keltirilgan gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang. Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqli bo'lgan tobelik va mutelik zanjiridan endi xalossan.
- A) 5 B) 3 C) 6 D) 4
20. Qaysi gapda bo'lishsizlik olmoshi ega vazifasida kelgan?
- A) Hech narsa yeyishni xohlamayman.  
B) U haqda hech qanaqa xat-xabar yo'q.  
C) Ustun bo'lgan emas dunyoga hech kim.  
D) Haqiq berma hech kimga.
21. G'am seli bilan ko'ngli vayronag'a o'xshaydur ... da u Sa'dullo hayronag'a o'xshaydur. Ushbu she'riy parchada tushirib qoldirilgan taxallusni toping.
- A) Zavqiy B) Furqat C) Nodira D) Uvaysiy

- 22. Xuddi so'z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o'rniga qarab ma'nolari ko'p.**  
Qaysi javobda ushbu gapdagi so'z turkumlari haqida noto'g'ri hukm bildirilgan?
- A) gapda beshta yordamchi so'z turkumi bor  
B) gapda ega ot bilan ifodalangan  
C) gapda bir xil ma'noni ifodalovchi ikkita yordamchi so'z turkumi bor  
D) gapda to'qqizta mustaqil so'z turkumi bor
- 23. Qaysi javobda kuchaytiruv-ta'kid ma'nosini bildiruvchi so'z-yuklamalar to'g'ri ko'rsatilgan?**  
1) hatto; 2) -ki; 3) axir; 4) faqat; 5) nahotki; 6) naq;  
7) -u(yu); 8) nihoyatda; 9) -da; 10) ham  
A) 1, 3, 4, 5, 8, 10 B) 1, 3, 5, 10 C) 1, 2, 3, 5, 7, 9, 10  
D) 1, 3, 5, 6, 8, 10
- 24. Do'mbira yordamida dostonlar ijro etuvchi, kuylovchi san'atkor "xalfa" deb yuritiladigan viloyatni aniqlang.**  
A) Xorazm B) Qashqadaryo C) Farg'ona D) Buxoro
- 25. Yasama ravishning yetakchi morfemasida unli va birgina jarangsiz undosh qatnashgan gapni toping.**  
A) O'z fikringizni ochiqchasiga bayon etsangiz, tushunamiz  
B) Qiz yer ostidan mayin kulib yigitga qaradi  
C) Yaxshilikcha quloq soling gapingizga  
D) Kelajakda yorqin hayotga erishish uchun astoydil harakat qilmoq lozim
- 26. Quyida keltirilgan gap tarkibidagi so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarish(lar) ro'y bergan?**  
**Birovning narsasini so'roqsiz ravishda olish kechirilmas gunoh sanaladi.**  
A) tovush orttirilishi B) tovush tushishi  
C) tovush tushishi va almashishi D) tovush almashishi
- 27. Charxi ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin, Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin!**  
Ushbu baytda qo'llangan she'riy sana'tni toping.  
A) ruju B) tazod C) tanosub D) talmeh
- 28. Qaysi javobda urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan?**  
1) vodorod; 2) hamma; 3) daftar; 4) gulday; 5) bordi  
A) 2, 5 B) 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 2, 4, 5
- 29. Quyida keltirilgan she'riy parchada qatnashgan ismlarning lug'aviy shakllari miqdorini aniqlang.**  
**Shovulladi tun bo'yi shamol,**  
**Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.**  
**Shivirlading yonimda xushhol:**  
**"Yana keldi, do'stginam, bahor".**  
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
- 30. Insonning tarixni yaratuvchi va uni dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligi rad etib bo'lmaz haqiqatdir.**  
Ushbu gapda ega qaysi gap bo'laklariga nisbatan hokim bo'lak hisoblanadi?  
A) 1 o'rinda qaratqich, 3 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga  
B) 1 o'rinda qaratqich, 2 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga  
C) 1 o'rinda qaratqich, 1 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga  
D) 2 o'rinda sifatlovchi aniqlovchiga
- 31. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda ko'chirma gap tarkibidagi qaysi bo'lak lik, ekanlik kabi shakllarni olib o'z vazifasini o'zgartiradi?**  
A) kesim B) ega C) to'ldiruvchi D) aniqlovchi
- 32. Uyushiq bo'laklarning hammasi ta'kidlanmay, balki sanab o'tilgan gap qaysi javobda berilgan?**  
A) "Avesto"da yigitlar kurash tushish, chavandoz bo'lish, mol boqa olish, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan himoya qila bilishni o'rganishlari shartligi aytiladi.  
B) U goh Toshkentga, goh Andijonga ketib, uzoq-uzoq turib qolardi.  
C) Sizga, atlas ko'ylakli qizga, havasim keladi.  
D) U to'qayzorda sassiq alafning, qamishlarning, gulni payhon qiluvchi to'ng'izlarning ko'pligidan ajablanmadi.
- 33. Tarkibida ot turkumiga oid beshta so'z qatnashgan gapni aniqlang.**  
A) Kenglik ayolning manglayida, chehrasida bo'lishi husnni oshiradi.  
B) Oqlik ayolning ko'zining oqi va yuzida bo'lishi kerak.  
C) Uzunlik sifatiga kelsak, ayolning qomati, sochi va kipriklarining uzun bo'lishi go'zallik belgisidir.  
D) Qoralik ayolning sochida, kipriklarida, qoshida va ko'zida bo'lishi kerak.
- 34. Quyida keltirilgan parcha qaysi asardan olingan va unda nima tasvirlangan?**  
"... oyoq qo'yan yer o'pirilib tushib, tubsiz o'ngirga aylandi. U oyog'ini tortib olib, orqaga tisarildi. Qorayib turgan o'ngirning labida qandaydir daraxtning ildizi ko'rindi. ... tubsiz jarga yiqilay deganda shu daraxtni ikki qo'llab tutib qoldi. Bir payt daraxt ham ildizi bilan sug'urilib chiqqa boshladi".  
A) "Avlodlar dovoni" romani, Humoyunning tushi  
B) "Yulduzli tunlar" romani, Bobur holati  
C) "Ulug'bek xazinasi" romani, Abdullatif tushi  
D) "Hellados" hikoyasi, Yanguli holati
- 35. Quyida berilgan gapdagi otlashgan sifatlar sonini aniqlang.**  
**Ahmoqlarning yuragi og'zida, donolarning tili esa yuragidadir.**  
A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 1 ta
- 36. Ilm ikki xil bo'ladi// biri – qalbdagi ilm, ikkinchisi – tildagi ilm.**  
Ushbu gapdagi // belgisi o'rniga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?  
A) ikki nuqta B) tire C) vergul D) nuqtali vergul

## BIOLOGIYA


- 37. Ayirish sistemasi yomg'ir chuvalchangining ayirish sistemasiga o'xshaydigan organizmlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.**  
A) butli o'rgimchak, kana, bo'ka, iskabtopar, maxaon  
B) podalariy, kulrang satir, tovusko'z, apollon  
C) chirildoq, maxaon, shira, qovoqari  
D) bitiniya, midiya, zaxkash, daryo qisqichbaqasi, lansetnik
- 38. Filogenezi postembrional davrda takrorlamaydigan organizmlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.**  
1) gatteriya; 2) qurbaqa; 3) chigirtka; 4) jigar qurti;  
5) yomg'ir chuvalchangi; 6) opossum; 7) podalariy;  
8) nereida; 9) shinshilla; 10) burga  
A) 1, 4, 8 B) 2, 5, 6, 7 C) 3, 5, 6, 10 D) 1, 6, 9
- 39. DNK molekulasida adenin va timin nukleotidlari orasida ikkita vodorod bog'i, guanin va sitozin nukleotidlari orasida uchta vodorod bog'i mavjud. Ma'lum bir DNK molekulasida umumiy nukleotidlarning 20%ini adenin tashkil etsa, undagi timin va sitozin nukleotidlarining sonini aniqlang.**  
A) 360, 540 B) 90, 135 C) 180, 270 D) 234, 351

40. Mendelning ilmiy ishlarni hisoblangan hodisalar qasi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) belgilarning mustaqil irsiylanish qonuni; 2) belgilarning birikkan holda irsiylanish qonuni; 3) irsiyatning xromosoma nazariyasi; 4) jinsga bog'liq holda irsiylanish; 5) tahliliy chatishtirish; 6) gametalar sofliqi gipotezasi; 7) bir xromosomada joylashgan genlarning nasldan naslga o'tishi; 8) tajribalarda gibridologik usulni qo'llash  
A) 1, 5, 6, 8 B) 2, 3, 4, 7 C) 2, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 8

41. Sog'lom odamning somatik hujayrasida mitozning profaza bosqichida xromosoma (a) va DNK (b) lar sonini aniqlang.

A) a-23; b-46 B) a-46; b-46 C) a-92; b-92  
D) a-46; b-92

42. Quyidagicha qon aylanish sistemasiga ega hayvonni aniqlang.



A) *shinshilla* B) *iguana* C) *manta* D) *triton*

43. Qaysi javobda zangori sachratqiga xos bo'lmagan xususiyat keltirilgan?

A) *Suttikandoshchalar oilachasiga mansub*  
B) *Savatchaning atrofidagi gullari soxta tilsimon*  
C) *Gullari ikki jinsli*  
D) *Savatchasidagi gullari tilsimon*

44. Barcha hayot shakllarida mavjud birikmani aniqlang.

A) *riboza* B) *guanin* C) *timin* D) *uratsil*

45. Sog'lom odam chap qo'lining uzun naysimon (a) va uzun g'ovak (b) suyaklari sonini aniqlang.

A) a-2; b-1 B) a-6; b-0 C) a-6; b-2 D) a-3; b-1

46. Bakteriyalar tomonidan elementar azotning atmosferaga ajratilishi (a) va ammiakning azot kislotaga aylantirilishi (b) qanday nomlanadi?

A) *a-nitrifikatsiya; b-denitrifikatsiya*  
B) *a-denitrifikatsiya; b-xemosintez*  
C) *a-ammonifikatsiya; b-nitrifikatsiya*  
D) *a-azotifikatsiya; b-denitrifikatsiya*

47. Restriktazalar tabiatiga mos keluvchi xususiyatlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

1) monomeri aminokislota; 2) DNK zanjiridan iborat;  
3) oqsil tabiatiga ega; 4) antibiotik parchalovchi ferment sintez qiladigan geni bor; 5) EcoRI, BamHI turlari bor;  
6) 3-4 ta gendan iborat; 7) transpozazani sintez qiluvchi geni bor; 8) DNK ni yopishqoq uch hosil qilib kesadi; 9) genomda o'z joyini o'zgartirib turadi; 10) vektor konstruksiya hosil qilishda foydalaniladi; 11) avtonom va transmissibl turlari bo'ladi; 12) RSS 101 turi bor; 13) bir hujayradan ikkinchisiga membrana teshiklari orqali o'tadi

A) 1, 3, 6, 11, 12 B) 2, 4, 6, 11, 12, 13 C) 1, 3, 5, 8  
D) 2, 7, 8, 10

48. N.I. Vavilovning retsessiv genlarga ega individlarning markazdan chetga chiqish qonuniga mos keluvchi ma'lumotlarni ko'rsating.

1) dominant belgilarga ega formalar tur tarqalgan areal markazida hukmronlik qiladi;  
2) bug'doyda qizil va oq donli formalar uchrasa, shunga o'xshash formalar arpa va sholida ham uchraydi;  
3) madaniy o'simliklarning 50%i Janubiy Osiyo tropik markazida tarqalgan;  
4) qushlar va sutemizuvchilar sinfidagi patsiz va yungsiz formalar uchraydi;  
5) kelib chiqishi yaqin turlarda irsiy o'zgaruvchanlik bir-biriga o'xshash bo'ladi;  
6) qand lavlagi va beda O'rta Yer dengizi markazidan kelib chiqqan;  
7) kakao daraxti vatani Efiopiya hisoblanadi;  
8) tamaki Janubiy Amerikadan tarqalgan;  
9) 20% madaniy o'simlik Janubi-g'arbiy Osiyodan kelib chiqqan;  
10) retsessiv belgili gomozigotalar tur tarqalgan arealning chekka qismini ishg'ol qiladi;  
11) markazlar soni 12 taga ko'paytirilgan;  
12) dominant belgili areal atrofini geterozigota organizmlar o'rab turadi

A) 3, 6, 8 B) 7, 9, 11 C) 2, 4, 5 D) 1, 10, 12

49. Qaysi javobda chug'urchuqqa xos bo'lgan xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?

1) chittaklar bilan bir turkumga kiradi;  
2) voyaga yetganda ham fitofag, ham entomofag hisoblanadi;  
3) miya katta yarim sharlari po'stlog'i burmali bo'lgani sababli hatti-harakatlari murakkab; 4) dushmani sezganda ovozing boricha shovqin soladi; 5) tuvaloqlar turkumiga mansub

A) 1, 2, 4 B) 3, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 5

50. Yaqindan ko'rish autosomada joylashgan dominant gen, rang ajrata olmaslik X xromosomada joylashgan retsessiv gen bilan ifodalanadi. Normal ko'rish qobiliyatiga ega ota-onadan rangni normada ajrata oladigan va daltonik bolalar tug'ildi. Kasal bolaning genotipini toping.

A)  $aaX^DX^D$  B)  $AAX^DX^D$  C)  $aaX^dY$  D)  $aaX^DY$

51. Qaysi javobda quyida keltirilgan o'simliklar tibbiyotda qanday vosita sifatida ishlatilishi to'g'ri juftlab ko'rsatilgan?

a) jag'-jag'; b) cherkez; c) tugmachagul; d) dorivor gulxayri; e) sachratqi;

1) ichni yumshatuvchi; 2) yo'talga qarshi; 3) qon bosimini tushiruvchi; 4) qon ketishini to'xtatuvchi; 5) oshqozon-ichak kasalliklariga qarshi

A) a - 5; b - 3; c - 1; d - 2; e - 4

B) a - 4; b - 1; c - 3; d - 2; e - 5

C) a - 4; b - 3; c - 1; d - 2; e - 5

D) a - 4; b - 3; c - 2; d - 5; e - 1

52. Qaysi javobda hasva qandalasi (a) va to'shak qandalasi (b) ning qanotlari haqidagi ma'lumot to'g'ri ko'rsatilgan?

A) a - birinchi juft qanotining uchki qismi qalin, asosi yupqa va shaffof; b - birinchi juft qanotining asosi qalin, uchki qismi yupqa va shaffof

B) a - birinchi juft qanotining oldi qalin, keyingi qismi yupqa va shaffof; b - qanotlari bo'lmaydi

C) a - ikkinchi juft qanoti asosi qalin, uchki qismi yupqa va shaffof; b - birinchi juft qanotining uchki qismi qalin, asosi yupqa va shaffof

D) a - qanotlari bo'lmaydi; b - birinchi juft qanotining keyingi qismi qalin, oldi yupqa va shaffof

53. O'rta quloq suyakchalarining noto'g'ri rivojlanishidan otoskleroz kasalligi kelib chiqadi. Karlikka olib keluvchi bu kasallik autosoma-dominant holda irsiylanadi. Ota-ona geterozigotali bo'lgan oilada sog'lom bola tug'ilish ehtimolini toping.

A) 25% B) 100% C) 75% D) 50%

54. Qaysi javobda yadro membranasi xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) bir qavat; 2) ikki qavat; 3) sitoplazmaga tutash membranasi ribosomalar joylashgan; 4) ichki tomondan membranasi silliq; 5) unda ko'p teshikchalar mavjud; 6) tashqi membranasi silliq; 7) endoplazmatik to'r kanallari yadroning ichki membranalari bilan tutashgan; 8) sitoplazma va yadro shirasi tarkibidagi farqni saqlab turadi; 9) tashqi membranalari hujayraning umumiy ichki aylanma tizimi bilan tutashgan; 10) yadro membranasi tuzilishi va kimyoviy tarkibi Golji majmuasi membranasi tuzilishi va kimyoviy tarkibidan farq qiladi; 11) hujayra membrana tizimining bir qismi hisoblanadi  
A) 2, 3, 4, 5, 7, 10 B) 1, 3, 4, 5, 8, 9  
C) 2, 3, 5, 6, 7, 10, 11 D) 2, 3, 5, 8, 9, 11
55. Dissimilatsiya jarayonida glukoza to'liqsiz va to'liq parchalanishi natijasida 10 molekula sut kislotasi va 30 molekula  $CO_2$  hosil bo'ldi. Ushbu jarayonlarda issiqlik sifatida tarqalgan energiya miqdorini (kJ) aniqlang.  
A) 200 B) 15000 C) 8000 D) 7000
56. Quyonsuyak qanday organizm?  
A) ikkilamchi konsument B) detritofag  
C) birlamchi konsument D) produsent
57. Ma'lum bir navli piyoz o'simligida piyozboshning qizil rangi sariq rangga nisbatan ustunlik qiladi, lekin ikkinchi juft noallel genning retsessiv alleli rang ta'sirini bo'g'ib, oq rangni yuzaga chiqaradi. Digeterozigota o'simliklar chatishtirilganda olingan qizil piyozboshli o'simliklar necha xil genotipik sinf hosil qiladi?  
A) 4 B) 9 C) 2 D) 3
58. Qonning plazmasi tarkibida antigemofil omil, antitana, vitaminlar, gormonlar, uglevod, yog', tuz, agglyutin beta, eritrotsitlarida esa rezus omil, gemoglobin, agglyutinogen A mavjud bo'lgan odam qaysi qon guruhlilar uchun retsiyent hisoblanadi?  
A) I, III B) II, IV C) III, IV D) I, II
59. Tuxumini xaltasida olib yuradigan organizmlarni belgilang.  
A) povituxa qurbaqasi, Amerika som balig'i  
B) o'rdakburun, lemur, yalqov C) dengiz otchasi, yexidna  
D) dengiz otchasi, koala, yexidna
60. Kommensalizm munosabatlari to'g'ri berilgan javobni toping.  
1) bir xil muhitda o'stirilgan infuzoriyaning ko'payish jadalligiga ko'ra bittasining qolishi; 2) mikoriza; 3) chumoli ichagida bir hujayrali xivchinlining yashashi; 4) baqachanoq mantiya bo'shlig'iga baliqning tuxum qo'yishi; 5) o'simlik va fitofaglar o'rtasidagi munosabat; 6) o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi; 7) odam og'iz bo'shlig'ida og'iz amyobasining yashashi; 8) yirtqich hayvonning o'z o'ljasidan ovqat manbai sifatida foydalanishi; 9) zamburug'larning antibiotik ishlab chiqarishi 10) dukkakli o'simliklar va tugunak bakteriyalarning o'zaro munosabati; 11) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib yashashi; 12) lishaynik tanasida suvo'tlar va zamburug'larning o'zaro munosabati  
A) 4, 6 B) 1, 5, 8, 9 C) 7, 11 D) 2, 3, 10, 12
61. Qaysi javobda yo'rg'a tuvaloqqa xos bo'lgan ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) tez yuguradi; 2) uzoqdan ko'zga tashlanmaydi; 3) juft bo'lib yashaydi; 4) diafragmasi rivojlangan; 5) daraxt shoxlariga uya quradi; 6) "Qizil kitob"ga kiritilgan; 7) urg'ochisi bolalarini himoya qilish uchun nayrang ishlatadi; 8) tuyaqushlar turkumiga mansub  
A) 1, 2, 4, 5, 8 B) 1, 2, 6, 7, 8 C) 1, 3, 4, 6, 7  
D) 1, 2, 3, 6, 7
62. Juft tuyoqli kavsh qaytaruvchi hayvonlarni belgilang.  
1) karkidon; 2) qulon; 3) begemot; 4) zubr; 5) bug'u; 6) tapir; 7) sayg'oq; 8) arxar; 9) to'ng'iz.  
A) 3, 6, 7, 9 B) 4, 6, 7, 8 C) 4, 5, 7, 8 D) 1, 2, 6, 9
63. Qaysi javobda tugmachagul o'simligiga xos belgilar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) poyasi tik o'suvchi; 2) barg bandi uzun; 3) kosachasi ikki qavatli; 4) gullari to'g'ri, ikki jinsli; 5) gullari to'g'ri, ayrim jinsli; 6) gulxayri turkumiga mansub; 7) poyasi sershox, yonboshlab o'sadi; 8) changchilari qo'shilib o'sgan; 9) mevasi soxta, rezavor; 10) changchilari 5 ta.  
A) 1, 3, 7, 10 B) 2, 5, 6, 8 C) 1, 2, 7, 9 D) 2, 3, 4, 8
64. Ayirish sistemasi o'xshash bo'lgan organizmlarni aniqlang.  
A) ko'p tukli chuvalchang va askarida  
B) askarida va nereida  
C) nereida va qizilqyruq  
D) ko'p tukli chuvalchang lichinkasi va oq planariya
65. Buta o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) qatrong'i; 2) lipa; 3) do'lana; 4) kamxastak; 5) tobulg'i; 6) irg'ay; 7) uchqat; 8) kovrak; 9) yapon noki; 10) yapon saforasi; 11) toron  
A) 5, 6, 7 B) 4, 8, 10 C) 6, 9, 11 D) 1, 2, 3
66. Drozofilada ko'zning oq rangda bo'lishi retsessiv, qizil rangda bo'lishi dominant hamda jinsga bog'liq holda irsiylanadi. Erkak drozofila oq ko'zli bo'lsa, gametogenez jarayonida ikkita birlamchi jinsiy hujayradan hosil bo'lgan spermatozoidlarning nechitasi shu retsessiv genga ega bo'ladi?  
A) 0 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta
67. Bog'ibag'ir qanday organizm?  
A) saprofit B) xemotrof C) fototrof D) geterotrof
68. Olimlarning tekshiruvlariga ko'ra, odam DNK molekulasi tuzilishi kalamush DNK molekulasi tuzilishidan necha foizga farq qiladi?  
A) 17 B) 28 C) 72 D) 83
69. Odam ko'z soqqasi ichida qaysi muskullar joylashgan?  
1) ko'z soqqasini harakatlantiruvchi muskullar; 2) gavhar atrofidagi kipriksimon muskullar; 3) qorachiq atrofidagi to'g'ri yo'nalgan muskullar; 4) qorachiq atrofidagi aylana muskullar; 5) gavhar atrofidagi aylana va to'g'ri yo'nalgan muskullar.  
A) 3, 4, 5 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3
70. Qaysi javobda odam suyaklarining yumshab qolishi kuzatiladigan holatlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) paratgormon ko'payib ketisa; 2) raxit kasalligida; 3) enterit kasalligida; 4) paratgormon juda kamayib ketisa  
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 2
71. Qaysi javobda magnoliyatoifalarga mansub bo'lmasada chang donalari hosil qiluvchi o'simliklar to'g'ri berilgan?  
A) ginkgo biloba, saur, pixta B) funariya, pixta, archa  
C) zuhrasoch, qirqquloq, rafleziya  
D) archa, plaun, suv qirqqulog'i
72. Shimoliy Amerikada qor bo'ronidan so'ng normal qanotli chumchuqlarning yashab qolishi (a), kuchli shamol tez-tez bo'ladigan okean orollarida kalta qanotli hasharotlarning yashab qolishi (b) qanday hodisalarga misol bo'ladi?  
A) a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish  
B) a-harakatlantiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish  
C) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-harakatlantiruvchi tanlanish  
D) a-stabillashtiruvchi tanlanish; b-stabillashtiruvchi tanlanish

73. Umumiy massasi  $0,147 \cdot 10^2$  g bo'lgan fenol va aromatik uglevdorod aralashmasi bromli suv bilan ta'sirlashganda 33,1 g cho'kma hosil bo'ldi. Agar fenolning uglevdorodga mol nisbati 2:1 bo'lsa, uglevdorod nomini aniqlang.  
A) kumol B) krezol C) o-ksilol D) stirol
74. Natriy karbonat va natriy gidrokarbonatdan iborat 60 g aralashma kuydirilganda 2,7 g suv ajralib chiqqan bo'lsa, aralashmadagi  $Na_2CO_3$  va  $NaHCO_3$  ning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.  
A) 58; 42 B) 55; 45 C) 48; 52 D) 40; 60
75. Quyida bir necha elementlarning nisbiy elektromanfiylik qiymati keltirilgan.  
Na(1,01), K(0,91), H(2,1), Br(2,87), C(2,5), S(2,6)  
Oltinugurtning qaysi element bilan hosil qilgan kimyoviy bog'ida bog' qutbliligi yuqoriroq?  
A) natriy B) kaliy C) vodorod D) uglerod
76. 5 g tuz 23 g X%li eritmasiga qo'shilganda to'yingan eritmaga aylanadi. Shu tuzning eruvchanligi 40 ga teng bo'lsa Xning qiymatini toping.  
A) 12 B) 13,04 C) 28,6 D) 4,762
77. Argonga nisbatan zichligi 1,33 ga teng bo'lgan 8 mol oltinugurt (IV) oksid va azot (IV) oksid aralashmasi 4 l hajmli idishda o'zaro ta'sirlashdi. Agar azot (IV) oksidning 40%i sarflangan bo'lsa, muvozanat konstantasini toping. (Reaksiyada  $SO_3$  va  $NO$  hosil bo'ladi)  
A) 1,0 B) 0,5 C) 0,12 D) 0,24
78. 301 ta molekulasini  $0,32 \cdot 10^{-22}$  kg bo'lgan modda formulasini toping.  
A)  $CH_4$  B)  $O_2$  C)  $SO_3$  D)  $SO_2$
79. 92,4 g tripeptid gidrolizidan 106,8 g faqat bitta turdagi aminokislota hosil bo'ldi. Aminokislota ni aniqlang.  
A) glitsin B)  $\alpha$ -alanin C) leysin D) valin
80. 17 g temir (II) sulfid va pirit ( $FeS_2$ ) aralashmasi yondirildi. Bunda 0,225 mol gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmaning massa ulushini (%) aniqlang.  
A) 59,2; 41,8 B) 84,2; 16,8 C) 72,8; 28,2 D) 64,7; 35,3
81. 1 mol noma'lum organik modda  $KMnO_4$ ning suvli eritmasi bilan oksidlanganda 46 g  $K_2CO_3$ , 66,7 g  $KHCO_3$ , 116 g  $MnO_2$  va suv hosil bo'ldi. Qaysi modda oksidlanganligini aniqlang.  
A)  $HCHO$  B)  $CH_3OH$  C)  $CH_3CHO$  D)  $HCOOH$
82. Butin, butadiyen va buten aralashmasida butenning hajmiy ulushi 0,4ga teng. Shu aralashmaning necha grammini 320 g 4% li bromli suv rangsizlantiradi?  
A) 4,4 B) 2,82 C) 1,62 D) 2,74
83.  $Na_2CO_3$  va  $Cr_2(SO_4)_3$  eritmaları qanday nisbatda aralashtirilsa, hosil bo'lgan eritmada karbonat ionlari mavjud bo'ladi? (gidroliz hisobga olinmasin)  
1)  $2Cr_2(SO_4)_3 + 3Na_2CO_3$ ; 2)  $1Cr_2(SO_4)_3 + 3Na_2CO_3$ ;  
3)  $3Cr_2(SO_4)_3 + 2Na_2CO_3$ ; 4)  $2Cr_2(SO_4)_3 + 7Na_2CO_3$ ;  
5)  $1Cr_2(SO_4)_3 + 4Na_2CO_3$ ; 6)  $2Cr_2(SO_4)_3 + 5Na_2CO_3$   
A) 4, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 3, 6 D) 2, 5, 6
84.  $B_2H_6$  va  $H_2O$  ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 95,3 va 285,8 kJ/mol ga teng.  $B_2O_3$  ning hosil bo'lish issiqligini toping. (44,8 l (n.sh.) diboran gazi yonishidan 4071,2 kJ issiqlik ajraladi.)  
A) 1273,5 B) 2035,6 C) 571,6 D) 2547
85. Qaysi javobda havodan yengil bo'lgan gazlar ko'rsatilgan?  
A) azot, is gazi, vodorod, azot (II) oksidi  
B) vodorod, azot, etilen, ftor  
C) vodorod, etilen, ammiak, etan  
D) vodorod, is gazi, ammiak, atsetilen
86. Tabiiy xrom to'rt xil:  $^{50}Cr$  - 4,35%,  $^{52}Cr$  - 83,79%  $^{53}Cr$  - 9,5%,  $^{54}Cr$  - 2,36% izotoplari aralashmasidan iborat. Xrom atomining o'rtacha massasini aniqlang.  
A) 51,9 B) 52,05 C) 52,2 D) 52,15
87. 110,4 g  $Li$  va  $K$  dan iborat aralashmaga suyultirilgan  $HNO_3$  ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 0,6 mol gaz ajraldi. Hosil bo'lgan kaliyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislotaga bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.  
A) 30,3 B) 20,7 C) 242,4 D) 165,6
88. 0,2% li  $NaOH$  ning 500 g eritmasi 96500 sekund davomida elektroliz qilinganda eritmaning  $pH$  qiymati 13 ga teng bo'ldi ( $\rho=1,928$  g/ml). Eritmadan o'tgan tok kuchini (A) aniqlang.  
A) 2 B) 5 C) 9 D) 4
89. 49 g sulfat kislotani neytrallash uchun tarkibida suvning massa ulushi 60% bo'lgan kristall sodadan necha gramm olish kerak?  
A) 154,5 B) 123,5 C) 132,5 D) 134,5
90. Qaysi birikmalar tarkibida  $sp^3$ -gibridlanish mavjud?  
1) perxlorat kislotasi; 2) ammiak; 3) uglerod (IV) oksid; 4) эрэн; 5) oltinugurt (VI) oksid; 6) ammoniy xlorid.  
A) 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 6 C) 1, 4, 5 D) 1, 3
91. Zaryadsiz nuklonlar soni barcha zarrachalarning 34,94%ini tashkil etadigan noma'lum element izotopi marganesning massasi 56 bo'lgan izotopiga izobar bo'lsa, noma'lum elementning protonlar soni qancha?  
A) 27 B) 28 C) 26 D) 29
92. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida xrom borligi ma'lum bo'lsa, A, C va F moddalarni aniqlang.  
 $Cr \xrightarrow{HCl} A \xrightarrow{KOH} B \xrightarrow{H_2O_2} C \xrightarrow{Br_2, KOH} D \xrightarrow{H_2SO_4} E \xrightarrow{H_2SO_4, K_2SO_3} F$   
1)  $CrCl_2$ ; 2)  $CrCl_3$ ; 3)  $Cr(OH)_2$ ; 4)  $Cr(OH)_3$ ;  
5)  $K_2Cr_2O_7$ ; 6)  $K_2CrO_4$ ; 7)  $CrSO_4$ ; 8)  $Cr_2(SO_4)_3$   
A) 1, 4, 8 B) 4, 6, 7 C) 2, 3, 5 D) 2, 6, 7
93. 63,2 g kaliy permanganatni kislotali sharoitda qaytarish uchun qancha hajm (l, n.sh.) vodorod sulfid va necha gramm sulfat kislotaga zarur?  
A) 13,44; 58,8 B) 22,4; 58,8 C) 22,4; 98 D) 8,96; 39,2
94. 160 g 2,5% li  $AlCl_3$  va 80 g 5% li  $NaOH$  eritmaları aralashtirilganda hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi va qizdirildi. Bunda hosil bo'lgan qattiq qoldiqning massasini (g) aniqlang.  
A) 0,51 B) 2,34 C) 1,17 D) 1,02
95. 1,2 g metanol va 0,03 mol sirka kislotaga qizdirilganda 1,85 g metilatsetat olingan bo'lsa, efrining unumini (%) aniqlang.  
A) 71,2 B) 83,3 C) 60 D) 85
96. Noma'lum elementning xloridi va xloratining molyar massalari nisbati 1:1,865 ga teng. Noma'lum elementni aniqlang.  
A)  $Rb$  B)  $Na$  C)  $Mg$  D)  $Ca$
97. Tabiiy organik polimer moddalarni ko'rsating.  
1) polietilen; 2) selluloza; 3) kraxmal; 4) lavsan; 5) kapron; 6) oqsil  
A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 5 C) 1, 4, 5 D) 3, 4, 6
98. 0,7 mol  $H_2S$  mo'l miqdordagi kislorodda yondirilishidan olingan mahsulotlar 200 g natriy gidroksid eritmasidan o'tkazildi. Nordon tuz massasi o'rta tuz massasidan 19,2 g ga kam bo'lsa, hosil bo'lgan eritmada o'rta tuzning massasini (g) hisoblang.  
A) 25,2 B) 37,8 C) 50,4 D) 63

99. Quyidagi qatorda elementlarning metalmaslik xossasi qanday o'zgaradi? (elementlarning tartib raqami berilgan)  
 $53 \xrightarrow{1} 52 \xrightarrow{2} 34 \xrightarrow{3} 35$   
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi  
A) 1 b; 2 a; 3 a B) 1 c; 2 a; 3 c C) 1 b; 2 b; 3 a  
D) 1 b; 2 a; 3 b
100. Metil formiat bilan 0,25 mol ammiak ta'sirlashganida necha gramm spirt hosil bo'ladi?  
A) 8 B) 23 C) 16 D) 11,5
101. Quyidagi moddalarni kristall panjaralari turi bilan to'g'ri juftlab ko'rsating.  
1) metanol; 2) xrom; 3) natriy yodid; 4) olmos; 5) vodorod; 6) geliy;  
a) molekulyar; b) atom; c) ion; d) metall.  
A) 1-b; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a B) 1-a; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-b  
C) 1-a; 2-c; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a D) 1-a; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a
102. Kaliy xlorat katalizator ishtirokida qizdirilganda hosil bo'lgan aralashmadagi xlorning massa ulushi 36% ni tashkil etsa, undagi kaliyning massa ulushini (%) aniqlang.  
A) 39,6 B) 70,36 C) 65,56 D) 78
103. Sariq qon tuzi molekulasida tarkibidagi markaziy atomning valentligi va oksidlanish darajasini aniqlang.  
A) V; +3 B) VI; +2 C) IV; +3 D) VI; +3
104. Kaliy propionat va kaliy atsetat aralashmasi mo'l miqdordagi KOH bilan qizdirildi. Olingan gazlar aralashmasi yondirildi. Yonish mahsulotlari normal sharoitga keltirilganda 0,06 mol gaz va 1,8 g suyuqlik olindi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) toping.  
A) 63,63 va 36,37 B) 50 va 50 C) 46,7 va 53,3  
D) 49 va 51
105. 0,1M li eritmalarning qaysi birida pH qiymati yuqoriroq?  
A)  $K_2SO_3$  B)  $K_2SO_4$  C) HCl D)  $NH_4Cl$
106. Etilasetilen trimerlanishidan olingan simmetrik tuzilishli aromatik uglevodorodga konsentrlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibida bittadan  $NO_2$  guruh tutgan nechta izomer hosil bo'ladi? (nitrogrupp oriyentatsiya qoidasiga binoan o'rin almashadi; yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)  
A) 4 B) 2 C) 1 D) 3
107. 0,09·10<sup>2</sup> g sut kislota mo'l miqdordagi natriy gidroksid eritmasidan o'tkazilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) toping. Reaksiya unumi 75%.  
A) 8,4 B) 13,4 C) 10,05 D) 11,2
108. Gips tarkibidagi atomlar soni 60,48 g nitrat kislota mo'l miqdordagi molekular soniga teng bo'lsa, gips massasini (g) aniqlang.  
A) 2,75 B) 13,76 C) 10,88 D) 165,12